

## MADANIYATLARARO MULOQOTDA INTERNET SLENGNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Djuraev Dilshod Mamadiyarovich,**  
 O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
 Toshkent, O'zbekiston  
FDX8585@mail.ru

**Annotatsiya.** Madaniyatlararo muloqotda internet sleng yangi muloqot muhit sifatida turli xil ijtimoiy guruh vakillar orasiga kirib borishi, shu jumladan internet yordamida ushbu guruh vakillariga muloqotga kirishish imkonini kengayadi. Ijtimoiy tarmoq orqali muloqotga kirishish bugungi kunning dolzab masalalaridan bo'lib bormoqda.

**Kalit so'zlar:** muloqot, internet, sleng, madaniyatlararo, ijtimoiy tarmoq

Globallashuvning rivojlanishi bilan tarmoq axborot texnologiyalari ham jadal rivojlanmoqda va tarmoq slenglari ham zamon bilan doimiy ravishda o'zgarib bormoqda. 21-asr yoshlari boy tasavvurga, faol fikrlashga, hayotiylikka to'la, innovatsiya qilishga tayyor hamda yangi narsalarni, ayniqsa, Internetda yangi muloqotlarni o'rganishni yaxshi ko'radilar. Ular o'z so'zlarini Internetda nashr etishni yaxshi ko'rishlari bilan birga ularni bir-birlari orasida tarqatish uchun yangi so'zlarni yaratishga harakat qilishadi, shuning uchun ular mashhur bo'lib qoladilar va zamon talabiga ko'ra Internetda yangi iboralar paydo bo'ladi.

Amerikalik sotsiolingvist Xayms 1972 yilda "madaniyatlararo muloqot kompetentsiya" atamasini taklif qilgan. U madaniyatlararo muloqot kompetentsiya ikki jihatni o'z ichiga olishi kerak, deb hisoblagan va bunda muloqot tildan foydalanish qobiliyati va muloqot tilni kengaytirish qobiliyati [1; 12-105]. Biroq, chet ellik olimlar madaniyatlararo muloqot qobiliyati madaniyatshunoslik, psixologiya, sotsiologiya va boshqalar kabi ko'plab fanlar bilan bir-biriga mos kelishiga ishonishadi va ta'rifni aniqlash qiyin. Shu sababli, ko'plab olimlar madaniyatlararo muloqot kompetentsiya va uning tarkibiy qismlari ta'rifiga turli xil ta'riflar berdilar.

1803-1869-yillarda yashagan XIX asr rus yozuvchisi, faylasufi va jamoat arbobi Vladimir Odoyevskiy o'zining 1835-yilda yozilgan 4338-yil tugallanmagan utopik romanida zamonaviy muloqot va umuman internetning paydo bo'lishini bashorat qilgan edi. Unda aytishicha, tanish uylar o'rtasida magnit telegraflar joylashgan bo'lib, ular orqali uzoq masofada yashovchilar bir-biri bilan gaplashadi, shuningdek, ko'p xonadonlarda, ayniqsa yaxshi tanish bo'lganlar o'rtasida "nashr etiladigan uy gazetalari o'rnini oddiy yozishmalar bosadi, ular odatda egalarining sog'lig'i yoki kasalligi haqida xabarlar va uydagi boshqa yangiliklari, so'ngra turli fikrlar, mulohazalar, kichik ixtiolar, shuningdek, qachon tushlikka chaqirilishi, ba'zan esa shunchaki muloqot vazifasida foydalanadi [2].

Sleng - bu norasmiy til, og'zaki yoki yozuvda rasmiy ishlatilmaydigan, ko'pincha ma'lum bir guruh yoki kasbga tegishli bo'lgan norasmiy til hisoblanadi [3; 6].

Hozirgi Internet sleng tushunchasining tadqiqotiga kelsak, uning tadqiqot istiqbollari asosan tilshunoslik, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, pedagogika va boshqalar sohalarga qaratilgan bo'lib, uning tadqiqotlari Internetdagi mashhur so'zlarning til xususiyatlarini tahlil qilishga, Internet tarmoqlaridagi mashhur leksikalarning qisqartirma yoki ko'chma ma'nolarini talqiniga va internet orqali boshqa til sohiblari bilan bemalol muloqotga kirishisha olishga undovchi vosita sifatida qarash mumkin. Biroq, internet sleng rivojlanish modeli bo'yicha munozaralar hanuzgacha ko'plab olimlar tomonidan turlicha talqin va fikrlar qilinmoqda.

Sleng - verbal va noverbal nutqlarning xususiyatlarini bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, to'liqlik, yaxlitlik va uyg'unlik tushunchalari kengayadigan, natijada ma'no va funktsiyalarning qayta taqsimlanishi mavjud bo'lgan yangi turdag'i ijtimoiy tarmoqlarda og'zaki muloqot tilidir. Shu bilan birga axborot, tahliliy va kommunikativ xususiyatlarni birlashtirish [4].

Internet aloqalari quyidagi janrlarni o'z ichiga oladi:

- 1) elektron pochta;
- 2) chat - texnik qurilmalar, qurilmalar orqali real vaqt rejimida norasmiy muloqot;
- 3) elektron e'lonlar taxtalar;
- 4) kompyuter orqali konferentsiyalar;
- 5) vebinarlar;
- 6) ijtimoiy tarmoqlar - "Vkontakte", "Odnoklassniki", "Faceboof" axborot va telekommunikatsiya xabarlarini aloqa qilish va tezkor uzatish uchun tarmoq jamoalaridagi odamlarning birlashmalari;
- 7) "Twitter", infotelekommunikatsiya xabarlarini uzatish dasturlari Wiber, WhatsApp, WeChat, Telegram va boshqalar.

Internet-aloqalarini Internet jargoni yoki Internet tili deb ta'riflab bo'lmaydi, chunki jargon va jargon nutqi internet muloqotining bir turi yoki varianti bo'lib, so'zlashuv lug'ati qatlamini tashkil etuvchi maxsus so'zlar va iboralar to'plamidir. Ammo internet maydoni turli ijtimoiy va professional guruhlarni birlashtirganligi sababli, virtual shaxslararo muloqotda jargon keng qo'llaniladi. Bundan tashqari, jargon va jargon tushunchalarining ta'riflarida Internet makonida muloqotni o'rganishda hisobga olinishi kerak bo'lgan lingvistik va madaniy xususiyatlar va ekstralolingvistik omillar hisoblanadi [5; 2].

Xulosa qilib aytganda tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chet tilini o'qitish jarayonida talabalarning zamonaviy internet tilida madaniyatlararo muloqot kompetentsiyasini shakllantirishga oid tushunchalarga tavsif berish va talabalarning ijtimoiy tarmoq orqali aloqa qilish bilimlarini shakllantirish mezonlari tadqiq qilindi hamda internet sleng tushunchasining mazmun-mohiyati ochib berildi. Ushbu maqolaning amaliy ahamiyati shundan iboratki, xorijiy tillarni o'qitishning didaktik tizimi, metodik ta'minotidan o'quv adabiyotlarni, shu jumladan, madaniyatlararo muloqot faniga doir o'quv dasturlarini takomillashtirishda, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda keng foydalanish mumkin. Talabalarning madaniyatlararo muloqotda internet sleng kompetentsiyasini shakllantirishga doir ishlanmalar xorijiy

tillar mashg‘ulotlarida keng qo‘llanilishi mumkin. Talabalarning axborat kommunikatsiya texnologiya kompetentsiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi auditoriyadan tashqari faoliyatni tashkil etishga mo‘ljallangan maxsus kurslarda, til o‘rganish bilan bog‘liq to‘garak mashg‘ulotlarida samarali foydalanish mumkin.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. 转引自：胡苑姗.汉语国际教育专业学生海外学习经历与跨文化交际能力培养的相关性研究[J].云南:西南林业大学学报(社会科学),2020(3):102-105.
2. Владимир Одоевский. Интернет и блоги в 1837 год - Лента.ру, 3.10.2005
3. Belonojkin S.G. Kolledj-sleng v internet-kommunikatsii Amerikanskogo studenta. - Aftorefrat 2010.
4. Karpov E.S. Funksionirovaniye slenga v diskurse internet-kommunikatsiya. - Aftoreferat 2016.
5. Сбоев Александр Николаевич Структурно-семантический и лингвокультурный аспекты интернет-лексики современного китайского языка. – Владивосток, – 2018 с.